

NAVOIY TALQINIDA DO‘STLIK RISHTASI

Rayhonoy YANGIBOYEVA*Urganch davlat universitetining adabiyotshunoslik
yo‘nalishi 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiyning orifona ruhda bitilgan g‘azali tahlilga tortilgan. Unda insonning umri bezagi sanalmish do‘st mavzusi qalamga olingan. Shoir bu obrazga tavsifiy emas, balki tahliliy yondashadi. Chin do‘st deya atalishi uchun insonda qanday sifatlar bo‘lmasligi kerakligini qalamga oladi.

Kalit so‘zlar: ozurda, javr, bihil, do‘st, dushman, g‘adr, soqiyo, vafo, afg‘on

Abstract: In this article, Alisher Navoi's unique ghazal, written in the spirit of oriphona, is analyzed. In it, the theme of a friend, which is considered an ornament of a person's life, is written, and this image is approached analytically rather than descriptively. It was mentioned what qualities a person should not have in order to be called a true friend.

Keywords: miserable, harm, bihil, friend, enemy, ghadr-unequal, soqiya, loyalty, wail

Аннотация: В данной статье анализируется уникальная газель Алишера Навои, написанная в духе орифона. В нем написана тема друга, считающегося украшением жизни человека, и к этому образу подходят аналитически, а не описательно. Было упомянуто, какими качествами не должен обладать человек, чтобы называться настоящим другом.

Ключевые слова: несчастный, вред, бихил, друг, враг, гадр-неравный, сокия, верность, плач.

*Shunday lahzalar bo‘ladiki, u qalbni
band etgan quvonch yoki qayg‘uni kim
bilandir bo‘lishish istagini tug‘diradi. Ana
shu istak natijasida izlangan taskin-do‘stdir.
(Muallif)*

"Navodir ush-shabob¹"-devoni o‘z sahifalardida rang-barang lavhalarni jamlaydi. Asosan, ishq mavzusi yuksak badiiy qiyoslar-la tarannum etiladi. Zero ishq, yigitlik ayyomini muzayyan qilguvchi ilohiy tortiqdir. Bu davrda inson ishqqa qanchalik tashna bo‘lsa, o‘z hislarini bo‘lishmoq, dil g‘uborlarini aritib, ruhiga taskin

¹ "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining 2-devoni

bermoq ilinjida do‘stga ham shunchalik ehtiyoj sezadi. Devondagi 87-g‘azalning do‘st mavzusiga bag‘ishlanganligi bejiz emas, albatta. E‘tiborli jihati shundaki, g‘azal do‘stga madh tarzida bitilmagan. Balki, ijodkor do‘st obraziga tahliliy yondashgan. Unda haqiqiy do‘st qanday bo‘lishi emas, balki qanday bo‘lmasligi kerakligi uqtiriladi. Bir qarashda umumiy talqin asosida yozilganday ko‘rinsa-da, g‘azalda biografik chizgilar ham borligi seziladi. Biz uchun muhimi, Navoiy hayotida kim, qachon sodiqlikdan koziblikka o‘tganligi emas, buning natijasi o‘laroq qalbida junbushga kelgan hislarni tahlilga tortishdir.

Qildi dushman rahm, baskim qildi javr izhor do‘st,
Ey ko‘ngul, dushman top emdi, tutmag‘il zinhor do‘st.

- ▶ g‘azal vazni- ramali musammani maqsur;
- ▶ afoyili- foilotun - foilotun - foilotun - foilon;
- ▶ taqte‘si: - ▶ - V - - / - V - - / - V - - / - V ~.

Nasriy bayoni: Ey ko‘nglim, endi o‘zingga do‘st emas dushman top. Zero do‘sting jabr, dushmaning rahm ko‘rgizar bo‘ldi.

Odatan, do‘st so‘zi ijobiy xislatlarni o‘zida mujassam etib, go‘zal fazilatlar bilan uyadoshlik hosil qiladi. Biroq yuqoridagi misralarda buning aksi ko‘rinadi. Do‘st-do‘stiga shunday jabr qildiki, bunga hatto dushmanining ham rahmi keldi. Endi u ko‘ngliga nasihat qilib, do‘stning holi bu bo‘lsa, endi zinhor kimsani do‘st deb bilmay, bil‘aks dushman topishni uqtiradi. Negaki:

Har zamon dushmanlarim ozurdadur, ey do‘stlar,
Baski, har dam yetkurur men zorg‘a ozor do‘st.

Har qachon menga do‘stlarimdan ozor yetganini ko‘rib, hatto dushmanlarim ham qattiq xafa bo‘ladilar.

Inson tabiati shunday ajibki, quvonchi bo‘lishgani sari ortib boradi, g‘ami esa aksincha kamayadi. Quvonchli onlarni Haqdan bilib, bunga ortiqcha diqqat qilmaslik mumkindir. Lekin qayg‘u kelganda, zaiflik asar qiladi. Qadami do‘sti ostonasi tomon yetaklaydi. Zum o‘tmay darddan forig‘ bo‘ladi. Basharti, shu jafolar do‘stidan "tuhfa"bo‘lsa, dardiga malham bo‘luvchi ostona qayda? Ey do‘stlar (odamlar), do‘stimdan ilk jabr ko‘rgan onimda, qanchalik parishon bo‘lgan edim. Endi u g‘oyat abgor holimdayam takror ozor berib, dil yaramni tirnamoqda. Bundan hatto dushmanlarim ozurdalar.

Dushman ar jonimni afgor aylasa, qildim bihil,
Javr tig‘idin chu ko‘nglum aylamish afgor do‘st.

Dushman jonimni azobladi, kechirdim. Nega do‘stim jabr tig‘lari bilan ko‘nglimni nimlatalamoqda?

Kechirim-chin mo‘minga xos xususiyatdir. U barchani Alloh rizoligi uchun kechiradi. Lirik qahramon ham shunday solih bandalardan. Dushmani sabab ranj chekdi, kechirdi. Biroq endi do‘stidan shunday jafoni ko‘rsa qanday yo‘l tutsin? Uni-

da afv etishi shubhasiz. Ammo do‘st do‘stning qalbiga tig‘ sanchgan ekan, bunga nima sabab bo‘lganligi uni ko‘proq mahzun qiladi. Ya‘ni u o‘ziga berilgan sitamdan emas, do‘stining o‘zga insonga aylanganidan nadomat chekadi.

Kecha dushmanlarga‘akim, nolamdin uyqu kelmadi,
Ranjamen mundin dag‘ikim, bo‘lmadi bedor do‘st.

Chekkani oh-u nolamdan dushmanlarim bedor bo‘ldilar-u, do‘stlarim mast uyqudalar. Hayhot, g‘aflat ularni shunday allalamoqdaki, do‘sti jon rishtasi domida to‘lg‘onar vaqti ham sira xushyor bo‘lmaslar. Ranjim chandon ortadir...

Men o‘lar holatda, dushmanlar ko‘runub do‘stlash,
Nevchun o‘lmaykim, kelur boshing‘a dushmanvor do‘st.

Jonim bo‘g‘zimga kelar ekan, dushmanlarim do‘stmisol hol so‘rab kelurlar, lekin do‘stlarim dushmanvor qiyofada hozir tururlar.

Endi menga o‘lim ham unchalik tahlikali emas. Zero, oldin dushmandan sitam ko‘rsam, yupanchim-do‘stim bor edi. Endi do‘stlarim dushmanga do‘nar bo‘ldilar, farog‘at dilga begona bo‘ldi. O‘lim-vahshat jarchisi dema, balki xaloskor de. U seni kelishi mumkin bo‘lgan balolardan asradi. Naqldurkim, "la rahata fid-dunya".

Kulsa dushman ayb emaskim, ko‘rmadim oz ham vafo,
Garchi qozg‘andim qilib jonim fido bisyor do‘st.

Dushmanlarim kulsa, ma‘zurdir. Ki, jondan kechib qozonganim do‘stlardan oz bo‘lsa-da vafo ko‘rmadim.

Ulug‘ hakimlardan biri demishki, "Dushmanim tosh otdi parvo qilmadim, do‘stim otgan xasdan boshim yorildi". Buning boisi, do‘stni sen o‘zingga qalqon deb bilasan. Biroq u seni nishonga olgan bo‘lsa, dushmandan xafa bo‘lishga asti o‘rin yo‘q. Dushmanlik kayfiyati qabihlikni taqazo etadi. Lekin do‘st-hatto hayolan bo‘lsa-da ozor berishini kutmaydigan insoningdir. "Jonni fido qilish" uchun odamdan ulkan fidoiylik hisi talab qilinadi. Kimdir mushkul ahvolda ekan, jonini ayamay uni bu holatdan chiqarib, do‘stlik rishtasini bog‘lagan lirik qahramon, o‘zi madadga muhtoj payti hamdardi chin topa olmay, haqli ravishda nadomat chekadi. U kechishga tayyor bo‘lgani- jonning almashib va to‘ldirib bo‘lmaydigan ne‘mat ekanligini bilsa-da, insoniylik burchini o‘z hayotidan ustun qo‘ydi. Pahlavon Mahmud aytganidek, "Non do‘sti emas, aslida jon do‘sti chin do‘st"²

Charxning mehri mag‘rur o‘lmag‘ilkim, g‘adri bor,
Hargiz o‘lmas kimsaga ul dushmani g‘addor do‘st.

Ko‘k quyoshiga bisyor ishonmagin, aldanchi erur. Ul hiylagar dushman hech vaqt kimsaga do‘st bo‘lmagay.

² Matnazar ABDULHAKIM tarjimasini. <https://saviya.uz/ijod/nazm/ikki-ko‘zim-ikki-ulug‘-daryodir/>

Navoiy asarlari lugʻatida³ gʻadr soʻzi-"makr", "hiyla", "aldov", "zolimlik" maʼnolarini bildiradi. Gʻaddor soʻzi shu oʻzakdan yasalgan boʻlib, "aldamchi", "zolim", "vafosiz" deya izohlangan. Charxning mehri birikmasi orqali ikki xil maʼnoni payqash mumkin. 1. Quyoshga boqib, nurlariga ishonib qolma, kun oxirida uning botishi bor. Zulmatda qolgan chogʻing nadomat chekkaning befoyda, charxi gʻaddora hali hech kimsaga vafo qilmagan. 2. Dunyoning mehribonligi aldamchidir, u nafsga orom beruvchi ishlarni chiroyli suratda koʻrsatib, maʼsiyat yoʻlini ravon qilib qoʻyadi. Bu fitnachi dushman hech vaqt kimsaga yaxshilikni ravo koʻrmaydi. Taassufki, buni bu juda ozchilik anglab yetadi. Dunyo havasi uchun yelib-yugurib umrini oʻtkazgan inson, alal-oqibat pushaymonlik hosili yigʻadi, oxirat sarmoyasidan bebahra qoladi. Bu xuddi kunduz quyoshga ishonib, tunda zulmatda qolgan kishi holatini eslatadi.

Soqiyo, qil doʻstluq, tut bodakim yoʻqtur gʻami,
Boʻlsa olam dushmani har kimga sendek bor doʻst.

Ey soqiy, menga bir lutf qilib, boda tut, har kimningki sendek doʻsti boʻlsa, butun olam dushmanlik qilsa ham aslo gʻam chekmagay.

Ey maʼrifat bulogʻidan obihayot ulashuvchi pir, menga shunday boda tutki, koʻnglim taskin topib, toki ul kechuvchi toʻfonlardan solim chiqay. Bu shunday sobirlik bodasi boʻlsinki, olam gʻami osmonimda charx ursa ham bir zum nolon boʻlmay.

Itlaring gʻavgʻo qilur goʻyo Navoiy oʻldikim,
Boshi uzra jamʼ oʻlub afgʻon qilurlar yor-doʻst.

Itlaring Navoiyni oʻldi deb gʻavgʻo qilurlar, barcha yor-u doʻstlar ham boshi uzra faryod chekurlar.

Maqtada it obrazi keltirilishi bejiz emas. Chunki tasavvufda it obrazi oʻzida bir qancha maʼnolarni aks ettiradi. Qurʼoni karimning Kahf surasida ham bu muborak hayvon asʼhobi kahfning vafodor hamrohi sifatida tilga olingan. Imom Gʻazzoliy "Daqoyiq ul-axbor" asarida shunday hadis keltiradi. Paygʻambarimiz alayhissalom aytadilar: " Moʻmin kishiga loyiq va munosib shulki, ani(ng) xulqi va odati itning xulqi va odatidek boʻlgʻay. Itning besh ibratli xulqi bordur.

1. Doim och boʻlur, qanoat qilur. Ochlikka qanoat solih bandalarning xulqidur.
2. Itning hashamatli makoni boʻlmas. Har goʻshada yotur. Goʻshanishinlik solihlar xulqidur.
3. Kechasi uxlamas. Bu tarzda bedorlik solihlar xulqidur.
4. Itning avlodiga meros qoldiradigan moli boʻlmas. Bu tariqa dunyo muhabbatini tark etmoq solihlar xulqidur.

³ Navoiy asarlari lugʻati 3-jild. (Nashrga tayyorlovchilar: P.Shamsiyev, S.Ibrohimov). - Toshkent: 1972.

5. Hargiz egasining eshigidan ketmas. Bu tariqada vafo qilib, Parvardigorga ibodat qilmoq solih kishining xulqidir.

Tadqiqotchi Laylo Hasanova o‘zining " "Xazoyin ul-maoniy"da it obrazining tasvirlanish tamoyillari"⁴ sarlavhali maqolasida it obrazini-yor iti, telba it, na't g'azallarda keluvchi hamda nafs obrazidagi it kabi turlarga ajratadi. Muallif fikricha bularning barchasi ijodkor idealiga yoki antidealiga xizmat qiladi. Yuqoridagi baytda esa, it vafo ramzi sifatida kelgan. U Navoiyning zabun holini ko'rib, o'ldi deb gumon qiladi va faryod chekadi. Itning nolasini eshitgan butun-yor-do'st tezda jam bo'ladi, oh-u fig'on qiladi. Bu tasvir orqali shoir insonlar orasidagi azaliy illat-kimningdir yillar bo'yi chekkan g'amiga sherik emas, balki tamoshabin bo'lib yashashi, umri oxirida esa boshi uzra yig'ilib nola qilishidan nadomat chekadi. Itning tunda bedorligi boisidan biri shuki, u jon talashib "pech-u tob" bo'lib qiynalayotgan bandaning holidan boshqalarni ham ogoh etadi. "G'aflatda qolma odamzod, kun kelib tushadigan holing budur" deb jar soladi.

Do'st-umr yo'llaringda hamroh. Kasal bo'lsang madad, xafa bo'lsang hamdard. Sog'ligingda dildosh, quvonchingda sirdosh. Navoiy orzu qilgan do'stlik rishtasi xuddi shunday. Zero, bu rishta ta'ma ipisiz, dil mehri ila bog'langandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. 4-jild // To'la asarlar to'plami, 10 jildlik, - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2013. bet.
2. Asqaloniy Ibn Hajar. Oltin o'gitlar. - Toshkent: Sharq, 2013.
3. Navoiy asarlari lug'ati. (Nashrga tayyorlovchilar: P.Shamsiyev, S.Ibrohimov). - Toshkent: 1972.
4. Imom G'azzoliy Daqoyiq ul-axbor. (Nashrga tayyorlovchi: N.Jabbor). - 1997.
5. Hasanova Laylo <https://cyberleninka.ru/article/n/hazoyin-ul-maoniy-kulliyotida-it-obrazlarning-tasvirlanishi-tamoyillari>
6. Shayx Muqammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 4-juz. - Toshkent: Hilol-Nashr, 2019.

⁴Hasanova Laylo <https://cyberleninka.ru/article/n/hazoyin-ul-maoniy-kulliyotida-it-obrazlarning-tasvirlanishi-tamoyillari>